GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTELLEKTUAL TA'MINOT ZANJIRI TEXNOLOGIYALARINING XALQARO TADBIRKORLIKDAGI O'RNI	977
Xudayberdiyev Otabek Absalomovich	
HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUSIONAL SALOHİYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOIY TAJRIBASI	983
Bekchanov Davron Masharipovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA MEHNAT FAOLIYATI UNUMDORLIGINING IQTISODIY YUKSALISHDAGI O'RNI.....	988
Anvarova Lobarxon	
TURIZM SOHASIDA HAYOT SUG'URTASI TIZIMINING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT	992
J.Kamalova	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O'TKAZISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	999
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO'NALISHLARI.....	1004
Nazarov Sanjar Nasridinovich	
KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....	1009
Sirojov Oxunjon Odil o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI	1015
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELİ	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IIY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ»	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHIIYATI	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	



KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Daminova Madinaxon Bahromjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Ekonometrika” kafedrası doktoranti

Elektron manzil: daminovamadina1992@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kreativ iqtisodiyotning tarkibi, tasnifi va rivojlantirish omillari batafsil yoritiladi. Shuningdek sohani tasniflashdagi turli yondashuvlar va asosiy muammolar yoritiladi. Bundan tashqari kreativ soha bilan birgalikda rivojlanuvchi sohalar ham alohida ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: kreativ iqtisod, tasnif va o'lchov mezonlari.

Abstract. This article provides a detailed overview of the structure, classification, and development factors of the creative economy. It explores various approaches to industry classification and identifies key challenges within the sector. Furthermore, the article highlights the specific fields that evolve in synergy with the creative industries.

Key words: creative economy, classification and measurement criteria.

Аннотация. В данной статье подробно освещаются структура, классификация и факторы развития креативной экономики. Рассматриваются различные подходы к классификации отрасли и основные существующие проблемы. Кроме того, отдельно указаны сферы, развивающиеся параллельно с креативным сектором.

Ключевые слова: креативная экономика, классификация, критерии измерения.

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda moddiy resurslar va an'anaviy ishlab chiqarish omillarining ahamiyati o'rnini intellektual mulk, g'oya va inson kapitaliga asoslangan kreativ iqtisodiyot egallab bormoqda. Bugungi kunda kreativ industriya nafaqat madaniy o'zlikni anglash vositasi, balki yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishining drayveri, yangi ish o'rinlari manbai va innovatsiyalar generatori sifatida e'tirof etilmoqda.

Kreativ iqtisodiyotning o'ziga xosligi shundaki, u san'at, texnologiya va biznes chorrahasida shakllanadi. Biroq, ushbu sohaning tarkibiy tuzilishi murakkabligi va uni tasniflashdagi yondashuvlarning xilma-xilligi ilmiy hamjamiyat oldida hamon dolzarb masalalarni qo'ymoqda. Mazkur maqolada kreativ iqtisodiyot tushunchasining nazariy asoslari yoritilib, uning tarkibiy tuzilmasi va tarmoqlar bo'yicha tasnifi tizimlashtiriladi. Shuningdek, kreativ iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy omillar (institutSIONal, inson kapitali, texnologik, moliyaviy va bozor omillari) ilmiy-analitik yondashuvda tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Kreativ iqtisodiyot” tushunchasi ilmiy muomalaga ilk bor 2001-yilda Jon Xokins (John Howkins) tomonidan kiritilgan bo'lib, u intellektual mulk ob'ektlari bilan bog'liq iqtisodiy tizimni tavsiflagan.

Richard Florida o'zining “Kreativ sinfnng yuksalishi” (The Rise of the Creative Class) asarida iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida iste'dodli insonlar jamlangan hududlarni (3T tamoyili: texnologiya, tolerantlik va talant) ko'rsatib o'tgan.

UNCTAD (BMTning savdo va rivojlanish konferensiyasi) kreativ iqtisodiyotni madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarning o'zaro uyg'unligi sifatida ta'riflab, uning tasniflash modelini ishlab chiqqan.



Yevropa Ittifoqi yondashuvida asosiy e'tibor madaniy meros va raqamli iqtisodiyotning integratsiyasiga qaratiladi.

O'zbekistonlik olimlardan D. Tadjibayeva va M. Qosimova o'z tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda kreativ tarmoqlarning rolini, ayniqsa servis iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyatini tahlil qilganlar.

Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida kreativ sohalarini o'lchash va ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan bo'lib, bu yo'nalishda chuqurroq tadqiqotlar olib borish zaruriyatini tug'diradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kreativ iqtisodiyotni o'rganish uchun tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, deduksiya va induksiya metodlaridan foydalanildi.

Mantiqiy tahlil: Kreativ iqtisodiyot tarkibiga kiruvchi sohalar (dizayn, IT, media, san'at va h.k.) o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi.

Statistik guruhlash: Xalqaro tashkilotlar (UNCTAD, UNESCO) tomonidan taklif etilgan tasniflash mezonlari tahlil qilinib, ularning o'xshash va farqli jihatlari ajratib ko'rsatildi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro iqtisodiy hisobotlar, sohaga oid qonunchilik hujjatlari hamda zamonaviy iqtisodchi olimlarning ilmiy maqolalari tashkil etadi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Kreativ iqtisodiyot — qiymat yaratishning asosiy manbai sifatida ijodiy g'oya, bilim, madaniy kontent, dizayn, brend hamda intellektual mulk (mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, dizayn huquqi, savdo belgisi va boshqalar) namoyon bo'ladigan iqtisodiy tizimdir. Uning o'ziga xosligi shundaki, moddiy resurslar va an'anaviy ishlab chiqarish omillari bilan bir qatorda, nomoddiy aktivlar (intangible assets) iqtisodiy natijaning markaziga chiqadi.¹

Kreativ iqtisodiyotning shakllanishi va kengayishi odatda "yaratish—ishlab chiqarish—tarqatish—iste'mol" zanjiri orqali izohlanadi. Quyidagi 1-rasmda mazkur jarayon va uning mazmuni tasvirlangan.²

Shunday qilib, kreativ iqtisodiyot — bu alohida tarmoqlar yig'indisi emas, balki yadro faoliyatlari + ta'minlovchi infratuzilma + institutsional muhit uyg'unligidan tarkib topgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.³

Kreativ iqtisodiyot tarmoqlarini tasniflash masalasi ilmiy tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki:



1-rasm. Kreativ iqtisodiyot realizatsiyasi zanjiri⁴

1. davlat siyosati va strategiyalarni ishlab chiqish;
2. bandlik, YAIMga hissa, eksport ko'rsatkichlarini o'lchash;

1 UNCTAD. (2024). Creative economy and digital transformation: Analytical materials (Annex 1). United Nations. https://unctad.org/system/files/official-document/ditctsce2024d2_annex1_en.pdf


2 UNESCO. (2009). The 2009 UNESCO Framework for Cultural Statistics (FCS). UNESCO Institute for Statistics. <https://unstats.un.org/unsd/statcom/doc10/Bg-FCS-e.pdf>

3 WIPO. (2015). Guide on surveying the economic contribution of the copyright industries (Revised edition). World Intellectual Property Organization..

4 Muallif tomonidan tuzilgan.



3. qo'llab-quvvatlash instrumentlarini (grant, subsidiyalar, soliq imtiyozlari) maqsadli yo'naltirish uchun aniq tasnif talab etiladi (2-rasm).



2-rasm. Kreativ iqtisodning turli yondashuvlarga ko'ra tasnifi⁵

Amaliyotda kreativ iqtisodiyotni tasniflashning bir nechta yondashuvlari shakllangan bo'lib, ular metodologik maqsadiga ko'ra farqlanadi. Yuqoridagi 2-rasmda kreativ iqtisodiyotni turli yondashuvlarga ko'ra klassifikatsiyasi tasvirlangan.

Demak, sohaning tasnifini asosan 4 ta yondashuvga asosan amalga oshirish mumkin. Bular kontent va funktsiya, intellektual mulk, milliy statistika va madaniy statistika ramkalari ko'ra tasniflashdan iborat. Jumladan content va funksiyasiga ko'ra kreativ faoliyatlar, odatda, "madaniy meros", "san'at", "media" va "funktional yaratuvlar (dizayn, arxitektura, reklama, raqamli mahsulotlar)" kabi yirik guruhlariga ajratiladi. Ushbu tasnifning afzalligi shundaki, u kreativ sektorning ham madaniy, ham bozor yo'nalishlarini bir butun tizim sifatida qamrab oladi.

Quyidagi 1-jadvalda tasniflash yondashuvlarining umumlashtirilgan taqqoslanishi keltiriladi (1-jadval).

1-jadval. Kreativ iqtisodiyotni tasniflash yondashuvlarining solishtirma tavsifi⁶

Yondashuv turi	Tasniflash mezon	Kuchli jihati	Cheklovi
Kontent/funksiyaga ko'ra	Meros–san'at–media–funktional yaratuvlar	Kreativ sektorni kompleks qamrab oladi	Statistik kodlarga moslashtirish murakkab bo'lishi mumkin
Mualliflik huquqiga tayangan	IM (Intellektual mulk) va MH(mualliflik huquqi) ulushi	Iqtisodiy hissani hisoblashda qulay	IM roli past tarmoqlarni qamrash bahsli
Milliy sektor ro'yxati	Milliy tasnif kodlari	Amaliy siyosat va statistikada qo'llash oson	Xalqaro taqqoslashda farqlar bo'lishi mumkin
Madaniy statistika ramkasi	Madaniy indikatorlar	Madaniy ishtirok va merosni chuqur o'lchaydi	"Bozor" segmentlari to'liq aks etmasligi mumkin


5 WIPO. (2015). Guide on surveying the economic contribution of the copyright industries (Revised edition). World Intellectual Property Organization. DCMS. (2023). DCMS sector economic estimates methodology. Department for Culture, Media & Sport, UK Government. <https://www.gov.uk/government/publications/dcms-sectors-economic-estimates-methodology/dcms-sector-economic-estimates-methodology>, UNESCO. (2009). The 2009 UNESCO Framework for Cultural Statistics (FCS). UNESCO Institute for Statistics. <https://unstats.un.org/unsd/statcom/doc10/Bg-FCS-e.pdf> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

6 Muallif tomonidan tuzilgan.



Demak, kreativ iqtisodiyotni tasniflash metodologiyasi tadqiqot maqsadiga bog'liq ravishda tanlanadi: agar iqtisodiy hissa va IP muhim bo'lsa — mualliflik huquqi yondashuvi, agar strategik boshqaruv va amaliy statistika ustuvor bo'lsa — milliy sektor ro'yxati, agar madaniy o'lchovlar muhim bo'lsa — madaniy statistika ramkasi ustunlik qiladi.

Kreativ iqtisodiyotning o'sishi ko'p omilli jarayon bo'lib, uning dinamikasi ichki resurslar, institutlar sifati va bozor sharoitlari bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida rivojlantiruvchi omillarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha guruhlash maqsadga muvofiq (3-rasm).



3-rasm. Kreativ soha bilan teng barobarda rivojlanuvchi omillar guruhi⁷

Rasmga muvofiq kreativ sohani rivojlantirish iqtisodiyotning jami 8 ta sohasiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bular:

1) Inson kapitali va ta'lim sifati

Kreativ sektorning asosiy resursi — ijodiy va intellektual salohiyatdir. Shuning uchun ta'lim tizimi:

- kreativ va raqamli ko'nikmalar (dizayn, media ishlab chiqarish, animatsiya, dasturlash, marketing),
- madaniyat menejmenti va kreativ tadbirkorlik,
- amaliy (praktik) tayyorgarlik va loyiha asosida o'qitish

kabi yo'nalishlarda kadrlar yetishtirishi zarur. Inson kapitali kuchli bo'lmagan sharoitda kreativ mahsulotlar sifati, raqobatbardoshligi va tijoratlashuv darajasi pasayadi.⁸

2) Intellektual mulkni himoya qilish va huquqiy muhit

Kreativ iqtisodiyotda daromadning muhim qismi mualliflik huquqi, litsenziya, royalti, brend qiymati orqali shakllanadi. Shu bois:

- IM ni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarining soddaligi,
- shartnoma madaniyati (litsenziyalash, franshiza, agentlik shartnomalari),
- piratlikka (qaroqchilik yoki ko'chirmakashlik) qarshi samarali, muvozanatli mexanizmlar

kreativ iqtisodiyot uchun asosiy institutlardan hisoblanadi.⁹

3) Texnologik omillar va raqamli infratuzilma

Raqamlashtirish kreativ iqtisodiyotning tarqatish va monetizatsiya modelini tubdan o'zgartirdi. Internet sifati, to'lov tizimlari, platformalar, bulutli xizmatlar, kontent ishlab chiqarish texnologiyalari (post production/post-prodakshn - bu kontent suratga olinib bo'lingandan keyin bajariladigan barcha ijodiy-texnik ishlar majmui, 3D - obyekt va muhitlarni uch o'lchamda (kenglik, balandlik, chuqurlik) raqamli modellashtirish texnologiyasi, VR(Virtual Reality ya'ni foydalanuvchini to'liq sun'iy virtual muhitga kiritadi) /AR(Augmented Reality ya'ni Real muhit ustiga raqamli obyektlar qo'shiladi), AI (Sun'iy intellekt) vositalari) mavjudligi:¹⁰

- bozorga kirish xarajatini kamaytiradi,
- eksportni "masofa"dan mustaqil qiladi,
- yangi biznes modellarni (abonement, mikroto'lov, reklama, marketplace) yaratadi.

4) Moliyalashtirish va investitsion mexanizmlar

Kreativ bizneslarda ko'pincha asosiy aktiv nomoddiy (g'oya, IP, brend) bo'lgani sababli an'anaviy kreditlashda garov muammosi yuzaga keladi. Shu bois quyidagilar muhim:

- grantlar va startap dasturlari,
- venchur/angel investitsiyalar,

⁷ Muallif tomonidan tuzildi.

⁸ Florida, R. (2002). The rise of the creative class: And how it's transforming work, leisure, community and everyday life. Basic Books..

⁹ O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (2024). Kreativ iqtisodiyot to'g'risida (O'RB-970-son). Lex.UZ. <https://lex.uz/docs/-7129258>

¹⁰ UNCTAD. (2008). Creative Economy Report 2008: The challenge of assessing the creative economy towards informed policy-making. United Nations. https://unctad.org/system/files/official-document/ditc20082cer_en.pdf



- eksport oldi moliyalashtirish,
- IP va brendni baholashga mos moliyaviy instrumentlar.¹¹

5) Bozor hajmi, talab va eksport kanallari

Kreativ iqtisodiyotning barqarorligi ichki talab bilan bir qatorda eksportga ham bog'liq. Bunda:

- turizm va xizmatlar bilan integratsiya,
- xalqaro platformalarda sotuv,
- milliy brend va "storytelling" (madaniy identitetni mahsulotga aylantirish),
- marketing va distributsiya tarmoqlari kreativ mahsulotning monetizatsiyasini kuchaytiradi.

6) Hududiy klasterlar va kreativ muhit (creative ecosystem)

Kreativ iqtisodiyot "yakka ijodkor"dan ko'ra ko'proq "hamkorlik tarmog'i" orqali tez rivojlanadi. Kreativ hub, klaster, coworking, makerspace, studiya va sahnalar:

- tajriba almashinuvi,
- hamkorlik loyihalari,
- xizmatlar kooperatsiyasi,
- iste'dodlarni jalb qilish kabi jarayonlarni kuchaytiradi.¹²

7) Davlat siyosati, boshqaruv va idoralararo koordinatsiya

Kreativ iqtisodiyot madaniyat, ta'lim, raqamli texnologiyalar, biznes va eksport siyosatlarini kesishgan soha bo'lgani sababli yagona strategik yondashuv talab etadi. Davlat siyosatida:

- normativ-huquqiy bazani moslashtirish,
- qo'llab-quvvatlash instrumentlari (grant, subsidiyalar, soliqlar),
- kreativ infratuzilma va tadbirlar (festival, ko'rgazma, yarmarka),
- hududiy rivojlanish dasturlari o'zaro muvofiqlashtirilsa, natijadorlik oshadi.¹³

8) Statistika o'lchovlar va monitoring tizimi

Boshqaruv uchun o'lchov zarur. Kreativ iqtisodiyot bo'yicha:

- bandlik va ish o'rinlari,
- korxonalar soni va daromad,
- eksport-import ko'rsatkichlari,
- IP ro'yxatga olish dinamikasi,
- madaniy ishtirok indikatorlari kabi ko'rsatkichlar muntazam kuzatilsa, siyosiy qarorlar dalillarga asoslanadi.¹⁴

Kreativ iqtisodiyotning nazariy tahlili shuni ko'rsatadiki, u nomoddiy aktivlar va intellektual mulkka tayangan holda qiymat yaratuvchi, ko'p tarmoqli va ekotizim xarakteriga ega iqtisodiy hodisadir. Uning tarkibi "yadro kreativ faoliyatlar", "ta'minlovchi va bozorga olib chiqish infratuzilmasi" hamda "institutsonal muhit"dan iborat bo'lib, tasniflash metodologiyasi tadqiqot maqsadiga ko'ra tanlanadi. Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish esa inson kapitali, huquqiy muhit, texnologik infratuzilma, moliyalashtirish mexanizmlari, bozor va eksport kanallari, klasterlashuv, davlat siyosati hamda statistik monitoringning uyg'unlashuviga bevosita bog'liqdir.

Kreativ iqtisodiyotning tasnifi: yondashuvlar va amaliy mezonlar

Kreativ iqtisodiyotni tasniflash (klassifikatsiya) masalasi amaliy boshqaruv va statistik hisob uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jahon tajribasida tasniflashning bir necha metodologik yondashuvlari shakllangan bo'lib, ularning har biri kreativ iqtisodiyotning muayyan "yadrosi"ga urg'u beradi:

1. UNESCO yondashuvi (madaniyat statistikasi doirasi) UNESCO madaniy faoliyatlarni "madaniyat sikli" (creation–production–dissemination–exhibition/reception/transmission–consumption/participation) asosida tushuntiradi. Shuningdek, UNESCO doirasida madaniy domenlar (A–F) ajratiladi: madaniy va tabiiy meros; ijro va bayramlar; tasviriy san'at va hunarmandchilik; kitob va matbuot; audio-vizual va interaktiv media; dizayn va kreativ xizmatlar.¹⁵

2. UNCTAD yondashuvi (kreativ industriya va kreativ iqtisodiyot ta'rifi) UNCTAD kreativ industrialarni ijodkorlik va intellektual kapitalga tayanadigan "yaratish–ishlab chiqarish–tarqatish" sikllari sifatida ko'radi; kreativ iqtisodiyot esa kreativ aktivlar asosida iqtisodiy o'sish, bandlik, eksport va ijtimoiy inklyuziyani rag'batlantirishi mumkin bo'lgan rivojlanib boruvchi konsepsiyadir.¹⁶

11 OECD. (2021). Promoting intangible assets and knowledge-based capital: Financing and investment challenges. OECD Publishing...

12 Porter, M. E. (1998). Clusters and the new economics of competition. Harvard Business Review, 76(6), 77–90..

13 O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (2024). Kreativ iqtisodiyot to'g'risida (O'RQ-970-son). Lex.UZ. <https://lex.uz/docs/-7129258>.

14 UNCTAD. (2008). Creative Economy Report 2008: The challenge of assessing the creative economy towards informed policy-making. United Nations. https://unctad.org/system/files/official-document/ditc20082cer_en.pdf va UNESCO. (2009). The 2009 UNESCO Framework for Cultural Statistics (FCS). UNESCO Institute for Statistics. <https://unstats.un.org/unsd/statcom/doc10/Bq-FCS-e.pdf>.

15 UNESCO. (2009). The 2009 UNESCO Framework for Cultural Statistics (FCS). UNESCO Institute for Statistics. <https://unstats.un.org/unsd/statcom/doc10/Bq-FCS-e.pdf>

16 UNCTAD. (2008). Creative Economy Report 2008: The challenge of assessing the creative economy towards informed policy-making. United Nations. https://unctad.org/system/files/official-document/ditc20082cer_en.pdf



3. DCMS yondashuvi (tarmoq/soha kesimida amaliy klassifikatsiya)

Buyuk Britaniya DCMS metodologiyasida kreativ industriyalar “ijodkorlik, ko’nikma va iste’doddan kelib chiqadigan hamda intellektual mulkni yaratish va undan foydalanish orqali boylik va ish o’rni yaratish salohiyatiga ega” sohalar sifatida talqin etiladi; amaliy statistikada ular SIC kodlari va “kreativ intensivlik” mezon bilan aniqlanadi.¹⁷

4. WIPO yondashuvi (copyrightga bog’liqlik darajasi)

WIPO kreativ iqtisodiyotni asosan mualliflik huquqi bilan bog’liq tarmoqlar orqali o’lchashni taklif etib, industriyalarni: core, interdependent, partial va non-dedicated support kabi kategoriyalarga ajratadi.¹⁸

5. O’zbekiston normativ yondashuvi (milliy tasnif)

“Kreativ iqtisodiyot to’g’risida”gi Qonun maqsadlarida kreativ industriya faoliyat yo’nalishlari 15 ta yo’nalish sifatida sanab o’tiladi (masalan, adabiy ijod, amaliy san’at va hunarmandchilik, arxitektura/urbanistika, audiovizual san’at, moda va dizayn, nashriyot-matbaa, OAV va internet orqali uzatiladigan ijodiy faoliyat, prodyuserlik, raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyat, reklama, muzey/galereya/kutubxona faoliyati, madaniy meros obyektlarini asrash, tasviriy san’at va b.).¹⁹

Quyidagi 2-jadvalda barcha o’rganilgan ma’lumotlarni qisqacha tasnifini yig’amiz (2-jadval).

2-jadval. Kreativ iqtisodiyotni tasniflash yondashuvlari (taqqoslama)²⁰

Yondashuv (manba)	Asosiy mezon	Tasnif birligi (qisqa)	Afzalligi	Cheklovi
UNESCO (FCS)	Madaniyat sikli + domenlar	6 ta madaniy domen + transversal domenlar	Madaniy jarayon to’liq (yaratishdan iste’molgacha) ko’rinadi	Bozor va IP monetizatsiyasini to’liq qamramasligi mumkin
UNCTAD	Ijod + intellektual kapital + trade/IP	Kreativ industriyalar va kreativ iqtisodiyot ta’rifi; o’lchovda ISIC/HS/EBOPS bog’lanishi	Xalqaro savdo va iqtisodiy o’lchovga mos	Sektorlar tez o’zgaradi, yangilanish talab etadi
DCMS (UK)	“Kreativ intensivlik” + SIC	9 sub-sektor (UK amaliyoti)	Rasmiy statistika bilan uyg’un; taqqoslash qulay	SIC doirasidagi “best fit” cheklovlari mavjud
WIPO	Mualliflik huquqiga bog’liqlik	Core/interdependent/partial/non-dedicated	IP va huquqiy himoya rolini aniq o’lchaydi	“Madaniy” va “ijodiy”ning hammasi copyrightga tushmasligi mumkin
O’zbekiston (O’RQ-970)	Milliy normativ yo’nalishlar	15 yo’nalish (soha ro’yxati)	Davlat siyosati va qo’llab-quvvatlash choralarga mos	Statistik klassifikatsiyalar bilan uyg’unlashtirish bosqichi zarur

Tasniflashning “eng to’g’ri” yagona modeli mavjud emas; maqsadga qarab (statistika, eksport, bandlik, IM, hududiy klasterlash) mos yondashuv tanlanadi. Shu bois dissertatsiyamiz doirasida milliy (O’RQ-970) tasnifni xalqaro yondashuvlar (UNCTAD/UNESCO/WIPO) bilan metodologik moslashtirish, ayniqsa statistik hisob (ISIC/OKED/HS/EBOPS) nuqtayi nazaridan muhim metodik vazifa bo’lib qoladi.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Kreativ iqtisodiyotning o’sishi ko’p omilli jarayon bo’lib, u resurs, institut, bozor va texnologik omillarning bir vaqtda uyg’un ishlashiga bog’liq. O’zbekiston qonunchiligida davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlari sifatida: fuqarolarning ijodiy-intellektual salohiyatini namoyon etishi uchun shart-sharoit yaratish; kreativ mahsulotlar aylanmasini oshirish; davlat qo’llab-quvvatlashida teng imkoniyat; kichik va o’rta biznesni qo’llab-quvvatlash; ilm-fan va innovatsiyalarni rag’batlantirish; infratuzilma yaratish; ta’lim tizimini takomillashtirish; cheklovlarni bartaraf etish; milliy madaniyat va brendlarni xalqaro maydonda targ’ib qilish kabi vazifalar belgilangan.

17 DCMS. (2023). DCMS sector economic estimates methodology. Department for Culture, Media & Sport, UK Government. <https://www.gov.uk/government/publications/dcms-sectors-economic-estimates-methodology/dcms-sector-economic-estimates-methodology>

18 WIPO. (2015). Guide on surveying the economic contribution of the copyright industries (Revised edition). World Intellectual Property Organization..

19 O’zbekiston Respublikasi Qonuni. (2024). Kreativ iqtisodiyot to’g’risida (O’RQ-970-son). Lex.UZ. <https://lex.uz/docs/-7129258>

20 UNESCO, UNCTAD, DCMS, WIPO hamda O’zbekistonning O’RQ-970-son Qonuni asosida muallif tomonidan tuzildi.



Shuningdek, O'zbekistonda kreativ iqtisodiyot bo'yicha uzoq muddatli yondashuvni shakllantirish yo'lida 2030-yilgacha konsepsiya va uni 2025–2026-yillarda amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi loyihasini ishlab chiqish vazifasi ham belgilangan.)

Demak quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin:

1. Kreativ iqtisodiyot tarkiban kreativ resurs (inson kapitali), kreativ subyektlar, institutsional muhit, infratuzilma va bozor (talab)dan iborat o'zaro bog'langan ekotizim sifatida namoyon bo'ladi.

2. Tasniflash bo'yicha UNESCO (madaniy domen va sikl), UNCTAD (trade/IP (savdo/intellektual mulk) va kreativ industriyalar ta'rifi), DCMS (tarmoq/statistika), WIPO (copyright (mualliflik huquqi)ga bog'liqlik) va milliy (O'RQ-970 doirasida 15 yo'nalish) yondashuvlar mavjud bo'lib, ular tadqiqot maqsadiga qarab bir-birini to'ldiradi.

3. Rivojlanish omillari tizimli ravishda: inson kapitali, institutsional-huquqiy muhit, moliyalashtirish, texnologik baza, bozor/auditoriya, hududiy klasterlashuv, o'lchash-monitoring va ko'p tomonlama hamkorlik bloklariga ajratilishi mumkin; milliy normativ-huquqiy baza ushbu bloklar bo'yicha amaliy instrumentlarni belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. DCMS. (2023). DCMS sector economic estimates methodology. Department for Culture, Media & Sport, UK Government. <https://www.gov.uk/government/publications/dcms-sectors-economic-estimates-methodology/dcms-sector-economic-estimates-methodology>
2. Florida, R. (2002). The rise of the creative class: And how it's transforming work, leisure, community and everyday life. Basic Books.
3. OECD. (2021). Promoting intangible assets and knowledge-based capital: Financing and investment challenges. OECD Publishing.
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (2024). Kreativ iqtisodiyot to'g'risida (O'RQ-970-son). Lex.UZ. <https://lex.uz/docs/-7129258>
5. Porter, M. E. (1998). Clusters and the new economics of competition. Harvard Business Review, 76(6), 77–90.
6. UNCTAD. (2008). Creative Economy Report 2008: The challenge of assessing the creative economy towards informed policy-making. United Nations. https://unctad.org/system/files/official-document/ditc20082cer_en.pdf
7. UNCTAD. (2024). Creative economy and digital transformation: Analytical materials (Annex 1). United Nations. https://unctad.org/system/files/official-document/ditctsce2024d2_annex1_en.pdf
8. UNESCO. (2009). The 2009 UNESCO Framework for Cultural Statistics (FCS). UNESCO Institute for Statistics. <https://unstats.un.org/unsd/statcom/doc10/Bg-FCS-e.pdf>
9. WIPO. (2015). Guide on surveying the economic contribution of the copyright industries (Revised edition). World Intellectual Property Organization.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
